
FARG'ONA TUMANI HOKIMI HAMIDULLO INOMOV VILOYAT DELEGATSIYASI TARKIBIDA LATVIYADAGI RASMIY UCHRASHUVLARDA BO'LIB TURIBDI

Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari Nuriddin Mamajonov Riga shahar dumasi raisi o'rinbosari Linda Ozola bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Uchrashuvda Riga shahri va Farg'ona viloyati o'rtasida savdo-iqtisodiy, qishloq xo'jaligi, madaniy-gumanitar, fan va innovatsiyalar yo'nalishlarida hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Jumladan:

-Farg'ona viloyati bilan Latviyaning ilg'or texnologiyalari asosida yengil sanoat, qishloq xo'jaligi, ta'lim va raqamlashtirish yo'nalishlaridagi yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

-Latviyaning Riga erkin Porti orqali "O'zbekiston-Latviya-Yevropa" port yo'li doirasida Riga shahrida xalqaro logistika markazini tashkil etish, bu orqali Yevropa davlatlariga mahsulotlar tranzitini yaratish;

- "KAIJA" baliqchilik klasteri va zavodiga tashrif, korxonada faoliyati bilan tanishish orqali viloyatda baliqdan konserva mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha tajriba ortirish;

-Rigada O'zbekiston Savdo uyida "Farg'ona mahsulotlari" shourumini ochish kabi masalar o'rin oldi.

Muzokaralar yakunida Farg'ona viloyati va Riga shahri o'rtasida kelgusidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan bitimni ishlab chiqish va imzolashga kelishildi.

Mazkur yo'nalishda qisqa muddatlarda Riga shahar rahbariyati boshchiligida delegatsiyaning Farg'ona viloyatiga tashrifini amalga oshirib, yuqoridagi kelishuvlarni amalga oshirish belgilandi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [Youtube](#) | [Telegram](#)

2024-04-27 01:04:49